

Ismoilova Tuyg‘unoy Bektosh qizi

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti

“Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi” yo’nalishining 2-kurs talabasi
tuyg‘unoyismoilova44@gmail.com

ABDULLA QODIRIY TARIXNI SO’ZLATGAN ISTE’DOD

Annotatsiya : Mazkur maqolada buyuk jadid Abdulla Qodiriy ijodining tarixiy va madaniy ahamiyatini, uning asarlaridagi o‘ziga xos voqeliklarni o‘rganishga qaratilgan. Abdulla Qodiriy tarixni so‘zlashdagi san ‘ati va iste ‘dodining o‘ziga xos jihatlari yoritilgan.

Kalit so’zlar: Abdulla Qodiriy, tarix, iste ‘dod, san‘at, jadid, madaniy.

Annotation: This article aims to study the historical and cultural significance of the work of the great Jadid Abdulla Qadiri, the unique realities of his works. The unique aspects of Abdulla Qadiri's art and talent in telling history are highlighted.

Keywords: Abdulla Qadiri, history, talent, art, modern, cultural.

Аннотация: Целью данной статьи является исследование исторического и культурного значения творчества великого Джадида Абдуллы Кадири, уникальных реалий его произведений. Освещены уникальные аспекты искусства и таланта Абдуллы Кадири в рассказе истории.

Ключевые слова: Абдулла Кадири, история, талант, искусство, современное, культурное.

Kirish

Abdulla Qodiriy – o‘zbek adabiyotining yorqin namoyandalaridan biri, tarixiy romanlar janrini rivojlantirgan ustozlardan biridir. Uning asarlari o‘zbek xalqining tarixiy o‘tmishini, madaniyatini va hayotini chuqur tasvirlaydi. Qodiriy tarixiy voqealar, qadimiy an'analar va milliy qadriyatlarni adabiy ifodalay olishda o‘zining betakror iste‘dodi bilan ajralib turadi. U asarlarida nafaqat o‘z zamonasi, balki o‘tgan asrlarning ruhi va xalqining o‘ziga xosligini muhim mavzu qilib tanlaydi. Asarlaridagi tarixiy voqealarni jonli va aniq tasvirlash orqali u xalqni o‘z tarixini anglashga, o‘z madaniy merosini qadrlashga chaqiradi. Qodiriy tomonidan ishlatalgan uslublar va tilda sodda, lekin ta’sirchan yondashuvlar o‘zbek romanini yangicha bosqichga olib chiqdi.

Adabiyotlar tahlili

Abdulla Qodiriy — o‘zbek adabiyotining eng buyuk va ta’sirchan yozuvchilaridan biri bo‘lib, uning asarlari o‘zbek xalqining tarixiy, ijtimoiy va madaniy hayotini yoritishga katta hissa qo’shgan. U XX asrning boshlarida yashagan va o‘z davrining eng murakkab, siljigan davrlarini tasvirlagan. O‘zbek romonchiligining asoschisi, jozibador va umumboqiy asarlari adabiyotimiz va umuman madaniyatimiz mulkiga aylanib ulgurgan o‘lmas so‘z san’atkori – Abdulla Qodiriydir. Yozuvchi adabiyotimizda o‘zining betakror romanlari, tanqidiy-publisistik maqolalari, humoristik feleytonlari bilan mashhur. Bugungi kunda Qodiriy ijodini o‘rganish bo‘yicha yurtimiz va xorijda ko‘plab jiddiy ishlar amalga oshirilmoqda. Qator tadqiqot ishlari yaratildi. Yurtimizda Qodiriy dahosiga ehtirom yuzasidan qilinayotgan ezgu ishlarning ko‘lami keng miqyosda davom etib kelmoqda. Qodiriy ijodi nafaqat yutimizda, ayni paytda, qardosh

xalqlar va g‘arb adabiyotida ham keng miqyosda o‘rganilyapti desak hech mubolag‘a bo‘lmaydi. Jumladan, mashhur qozoq yozuvchisi Muxtor Avezov ijodkor hayotiga oid “Abdulla Qodiriy” (Julqunboy) nomli yuksak roman yaratdi. Abdulla Qodiriy va uning asarlari haqida gap ketganda, “... Uning romanlari 20-yillarda go‘yo tekis sahroda to‘satdan Pomir tog‘lari vujudga kelganday paydo bo‘ldi...” degan e’tirofini ko‘pchilik yaxshi biladi. Aslida tekis sahroda tog‘ o‘z o‘zidan paydo bo‘lib qolmaganidek o‘zbek romani ham mavjud mumtoz epik tafakkurning yangicha sharoit bergen mahsulidir. Qodiriyshunoslikka oid o‘zgacha talqinlarni kuzatishda xorij olimlari tomonidan bitilgan manbalar ham nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Ikkinchiji jahon urushi davrida Berlinda nashr etilgan “Milliy adabiyot” majmuasida “O‘tkan kunlar”dan parchalar berilgan (1943. 5-son). Shuningdek, “Milliy Turkiston” majmuasining 1964-yil may sonida Boymirza Hayitning “Turkiston yangi adabiyotida ikki siyomo: Qodiriy va Cho‘lpon” nomli maqolasi bosiladi. Maqolaning avvalgi qismi Abdulla Qodiriy xususida bo‘lib, sarlavhadan keyin “boshqarma” — tahririyat tomonidan shunday eslatma bitilgan: “O‘tkan kunlar”da “Ho‘qand xonligi va Rusiyaning Turkistonga hujumi oldidagi hayot tasvir etilgan” ligini ochiq yozdi. Qodiriy tarixni so‘zlatgan iste’dodini o‘z asarlarida namoyon qilgan. Uning eng mashhur asarlari “O‘tkan kunlar” va “Mehrobdan chayon” bo‘lib, bu asarlarda u o‘z xalqining tarixiy o‘tmishi, turmush tarzini, urf-odatlari va insoniyatning axloqiy muammolarini tasvirlaydi. “O‘tkan kunlar” romani o‘zbek tarixining bir qismiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi turmush tarzining, jamiyatning o‘zgarishlari va mehnat, muhabbat, inqilob kabi mavzularining tasviri berilgan. U jamiyatni, uning ziddiyatlarini va ijtimoiyadolatsizliklarni ko‘rsatgan, shuningdek, zamonning murakkab o‘zgarishlarini go‘zal va ta’sirli tarzda aks ettirgan. Qodiriy o‘z asarlarida nafaqat tarixiy, balki ijtimoiy va psixologik jihatdan ham chuqur tahlil o‘tkazgan. Uning qahramonlari o‘z o‘rni, kelajagi va qiyinchiliklari qarshi kurashayotganda, turli xulq-atvor va qarorlar orqali tarixning faqat faktlar emas, balki insonning ichki dunyosidagi o‘zgarishlarni ham ifodalashga intilgan. Qodiriy o‘ziga xos yozuv uslubi bilan ajralib turadi. U o‘z asarlarida tilning boyligini, tasviriyligini va ifodali uslubini qo’llaydi. Bu esa o‘quvchilarga tarixni yanada jonli va hayotiy tarzda qabul qilish imkonini beradi. Qodiriy tarixiy voqealarni chuqur o‘rganib, ularni o‘z asarlarida mahorat bilan aks ettiradi. U tarixiy faktlarni badiiy tasvir bilan birlashtirib, o‘quvchilarga tarixni yanada qiziqarli va tushunarli qiladi. Qodiriy o‘z asarlarida o‘z zamonasining ijtimoiy muammolarini,adolatsizliklarni va xalqning qiyinchiliklarini yoritadi. Bu esa uning asarlarini nafaqat tarixiy, balki ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ham ega qiladi.

Xulosa

Shunday qilib, Abdulla Qodiriy tarixni nafaqat voqelikning o‘tmishdagi tasvirini, balki inson ruhining, ijtimoiy hayotning o‘zgarishlarini, ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar va qadriyatlar evolyutsiyasini ham jonlantirish orqali so‘zlatgan. Abdulla Qodiriy, tarixni o‘z asarlarida jonlantirib, uning qahramonlari va voqealari orqali o‘sha davrni tiriltirgan. Uning iste’dodi tarixiy realiyatchilikni va insoniy his-tuyg‘ularni o‘ziga xos tarzda birlashtira bilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. A.Qodiriy “Diyori bakr”, Toshkent, Yangi asr avlod, 2007-yil
2. Shomaqsudov Sh., Shoraxmedov Sh., Hikmatnoma, - Toshkent, 1990
3. Б.Карим. Абдулла Қодирий.Тошкент. “Фан”. 2006.
4. <https://saviya.uz/hayot/nigoh/abdulla-qodiriy-haqida/?imlo=k>
5. Ismatulla X. Abdulla Qodiriy abadiyati. O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. 1994 yil 14-oktyabr, 11-noyabr.